

**SOG‘LOM VA BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANISHIDA  
OILA, MAHALLA VA JAMOAT TASHKIOTLARINING O‘RNI**

*Bozorova Go‘zal Samandarovna*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

*Termiz filiali davolash yo‘nalishi*

*IV bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurt kelajagiga mas‘ul bo‘lgan ma‘nan boy va teran aqlga ega bo‘lgan yoshlarni shakllantirishda oila, mahalla va jamoatchilikning mas‘uliyati va ularning yosh avlod tarbiyasidagi burch va vazifalari hamda boshqa dolzarb masalalar xususida ilmiy – tahliliy mulohazalar bildirilgan. Taqdim etilayotgan maqola turli soha mutaxassislari hamda keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

**Kalit so‘z.** Maqola, oila, mahalla, jamoatchilik, tarbiya, yosh avlod, burch.

Mamlakatimizda yoshlarimizning jismoniy sog‘lom, ma‘naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan, vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladigan shaxs qilib tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Oila, mahalla va jamoat tashkilotlari sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qonunchilik va normativ- huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yangi qoida me‘yorlarni ishlab chiqishi lozim. Sog‘lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog‘lom va ahil oilaning mevasi sifatida qarab, oilada o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma‘naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish, yosh oilalarning oyoqqa turib olishi uchun moddiy yordam ko‘rsatish, onalik va bolalik muhofazasini ta‘minlash, ona va bolaning salomatligini mustahkamlash, ayollarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ro‘zg‘or tashvishlarini yengillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kerak.

Biz sog‘lom bolani shakllantirishda ta‘lim-tarbiya tizimi va sportning rolini kuchaytirishimiz, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirishimiz, ularni yuqori malakali va tajribali pedagoglar bilan ta‘minlashimiz, boshlang‘ich ta‘limning sifatini oshirishimiz, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilashimiz, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etishimiz, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishimiz, bolalar, ayniqsa qiz bolalar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg‘otish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozimdir.

Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda davlat va jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam va madadni kuchaytirishimiz, mazkur jarayonlar

uchun mas'ul bo'lgan sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratishimiz, ularni rivojlantirishga yo'naltiriladigan mablag'lardan samarali foydalanishimiz sog'lom bolani tarbiyalash bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani keng ko'lamda o'rganishimiz va amalda joriy etishimiz zarur.

Sog'lom bolani, ayniqsa, qiz bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazishda, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi uchun ularga ko'mak berish, bolalarni turli to'garaklarga jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha mahalla va boshqa jamoat tuzilmalarining rolini oshirish, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, oilalar va jamiyatda o'zaro hamjihatlik, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy va ma'naviy yordamni o'z vaqtida va manzilli ko'rsatish borasida mahalla va boshqa jamoat tuzilmalarining mas'uliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yurtboshimiz I. Karimov aytganlaridek "farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli va albatta, baxtli bo'lishlari shart".

Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham o'g'il uylantirishda kelin tanlashni, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas. Davlatning qudrati – sog'lom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun jonni tikkan insonlar qo'lida.

Bugungi davr yoshlari uchun oilasi, millati, xalqi, Vatani taqdiri, buguni va ertasi uchun fidoyilik ko'rsatish eng oliy qadriyat hisoblanadi. Yangi asr yoshlari bilan eng avvalo tarbiya ob'yekti emas, balki sub'yekti sifatida munosabatda bo'lmoq biz kattalarning jamiyat oldidagi burchimizdir. Ular bilan tengdosh, hamfikir, yaqin hamdard sifatida muloqotda bo'lish, ularning o'y va fikrlarini, oilada va atrof-muhitda bo'layotgan voqea va hodisalarga shaxsiy qarashlarini eshitish, inobatga olish, jamiyatimiz uchun erkin fikrli avlodlarni tarbiyalab borishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorini yuzaga chiqarish, qobiliyatini toblash maqsadida ko'rsatilayotgan mehr va e'zoz shu aziz Vatanning musaffo osmoni, zilol suvi, beqiyos imtiyozu imkoniyatlaridan bahramand bo'lib, umrguzaronlik qilayotgan har bir kishini elim deb, yurtim deb yonib yashashga undayveradi. Mamlakatimizda navqiron avlodni yuksak salohiyat va puxta bilim sohibi etib tarbiyalash maqsadida jahon andozalariga mos ta'lim maskanlari, san'at va sport inshootlari qurilib, foydalanishga topshirilmoqda.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch", T. O'zbekiston. 2008 32-bet.
2. Oila va jamiyat. 9-son, 5-mart 2014-yil.
3. "Bolalar va o'smirlar gigiyenasi" M.N.Ismoilov
4. "Sog'lom avlod uchun" jurnali. 3-son, 2014-yil